

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Oilaviy shifokorlik-1, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'yicha

BAYONNOMASI

12.01.2026 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Kafedra mudiri, t.f.d., prof. Shamansurova E.A., barcha kafedra hodimlari.

Kun tartibi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasining ustuvor yo'nalishlari hamda mazmun-mohiyatini o'rganish.

Eshitildi: Kafedra mudiri, t.f.d., prof. Shamansurova E.A. so'zga chiqdilar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasining ustuvor yo'nalishlari hamda mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy seminar haqida gapirdilar.



Mazkur tadbirning asosiy maqsadi Prezident Murojaatnomasida belgilangan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, xususan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, tibbiy ta'lim sifatini oshirish hamda "Inson qadri uchun" tamoyilini oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga izchil tatbiq etish masalalarini professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarga keng targ'ib etishdan iborat bo'ldi.

Tibbiyot sohasini rivojlantirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash, kasbiy ta'limni takomillashtirish, shuningdek Murojaatnomada belgilangan vazifalarning oliy tibbiy ta'lim tizimidagi amaliy ahamiyati yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Prezident Murojaatnomasida 2026-yil yurtimizda **"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"** deb e'lon qilinib, mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rni va mas'uliyatini yanada oshirish, aholining ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda inson salomatligini ta'minlashda mahallaning muhim bo'g'in sifatidagi roli alohida ta'kidlandi.

Mazkur ustuvor yo'nalishlar Toshkent davlat tibbiyot universitetida o'tkazilgan ilmiy-amaliy seminar davomida sog'liqni saqlash tizimini



mahalla darajasida mustahkamlash, profilaktika ishlarini kuchaytirish, tibbiy xizmatlar sifati va ularning aholiga yaqinligini ta'minlash masalalari bilan uzviy bog'liq holda muhokama qilindi.

Shuningdek, bo'lajak shifokorlarning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, ularni mahalla bilan hamkorlikda ishlashga tayyorlash muhim vazifa sifatida qayd etildi.

Prezident Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarni oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga samarali joriy etish, tibbiy ta'lim sifatini yanada oshirish va talaba-yoshlar orasida kasbiy mas'uliyat hamda fuqarolik ongini mustahkamlash bo'yicha muhim xulosalar bildirildi.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.



Shamansurova E.A.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari

bo'yicha mas'ul, ass.:



Shayxova M.I.